

BARMOQ MUSKULLARINING KUCHINING TAXLILI.

Abduhalilova O'g'iloy, Xodjayeva Aziza, Xolmirzaeva Madina
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Andijon viloyatining Oltinko'l tumanidagi 48-umumta'lim maktabning 5-6-sinfda o'quvchilarining qo'l kuchi (o'ng qo'l va chap qo'l) ko'rsatkichi qiymati tahlil qilingan va jismoniy ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: dinamometriya, o'quvchilarni qo'l kuchi, qo'l muskullari, jismoniy rivojlanish.

Abstract: In this research, the value of hand strength (right hand and left hand) of students of the 48th general school in Altinkol district of Andijan region in the 5th-6th grade was analyzed and physical indicators have been studied.

Key words: dynamometry, students' hand strength, hand muscles, physical development.

Аннотация: В данном исследовании проанализировано значение силы рук (правой и левой руки) у учащихся 48-й общеобразовательной школы Алтынкольского района Андижанской области в 5-6 классах и изучены физические показатели.

Ключевые слова: динамометрия, сила рук студентов, мышцы рук, физическое развитие.

Odam organizmining jismoniy rivojlanish darajasi asosiy antropometrik ko'rsatkichlar – ya'ni, tana vazni, bo'y uzunligi va ko'krak qafasi aylanasi bilan birgalikda, qo'shimcha ravishda dinamometriya uslubi

yordamida qo'l kuchi ko'rsatkichi qiymatini aniqlash asosida baholanadi. Ushbu antropometrik ko'rsatkichlar odam organizmining umumiy salomatlik holati va shuningdek, tashqi muhit sharoitiga adaptatsiya mexanizmlarining namoyon bo'lish darajasini belgilab beradi [1; 2; 3;].

Ayniqsa, bolalar organizmining antropometrik ko'rsatkichlarining iqlim–geografik sharoitlar omillariga bog'liq dinamikasini o'rganish bevosita, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi odamlar populyatsiyasi tarkibida bolalar kagortasining salomatlik holatini baholash va shuningdek, ushbu yo'nalishda hududiy standartlar/chora–tadbirlar kompleksini ishlab chiqish imkonini beradi [1; 6; 9;].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holatda, ushbu tadqiqot ishining maqsadi –Andijon viloyati Oltinko'l tumani 48-umumta'lim maktabning 5-6-sinfda o'qiyotgan sog'lom bolalarda qo'l kuchini o'rganshdan iborat bo'ldi. Ularning qo'l muskullarining maksimal kuchini aniqladi.

Olingan natijalar taxlilining quyidagilarni ko'rsatdi.

Oltinko'l tumani 48-umumta'lim maktabning 5 sinf o'g'il bola o'quvchilari barmoqlar bukuvchi muskullarining maksimal qisqarish kuchining eng katta ko'rsatkichi, o'ng qo'l 30,0 kg/m.ga, chap qo'l 28,0 kg/m.ga, eng kichik ko'rsatkichi o'ng qo'l 20,0 kg/m.ga, chap qo'l 18,0 kg/m.ga teng. O'rtacha ko'rsatkichi o'ng qo'l $23,5 \pm 0,65$ kg/m.ga, chap qo'l $21,7 \pm 0,57$ kg/m.ga teng.

Qiz bola o'quvchilari qo'l dinamometriyasining eng katta ko'rsatkichi esa o'ng qo'l 24,0 kg/m.ga, chap qo'l 22,0 kg/m.ga, eng kichik ko'rsatkichi o'ng qo'l 14,0 kg/m.ga, chap

qo‘l 15,0 kg/m.ga teng. O‘rtacha ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l $20,6 \pm 0,40$ kg/m.ga, chap qo‘l $19,1 \pm 0,41$ kg/m.ga teng.

O‘rtacha ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanganda, o‘rtadagi farq o‘ng qo‘l 3,8 kg/m.ni, chap qo‘l 3,7 kg/m.ni tashkil qildi va u statistik jihatdan muqarrardir ($P < 0,01$).

6 sinf o‘g‘il bola o‘quvchilari barmoqlar bukuvchi muskullarining maksimal qisqarish kuchining eng katta ko‘rsatkichi, o‘ng qo‘l 30,0 kg/m.ga, chap qo‘l 29,0 kg/m.ga, eng kichik ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l 20,0 kg/m.ga, chap qo‘l 16,0 kg/m.ga teng. O‘rtacha ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l $25,1 \pm 0,66$ kg/m.ga, chap qo‘l $22,8 \pm 0,55$ kg/m.ga teng.

Qiz bola o‘quvchilari qo‘l dinamometriyasining eng katta ko‘rsatkichi esa o‘ng qo‘l 29,0 kg/m.ga, chap qo‘l 26,0 kg/m.ga, eng kichik ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l 18,0 kg/m.ga, chap qo‘l 17,0 kg/m.ga teng. O‘rtacha ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l $22,8 \pm 0,60$ kg/m.ga, chap qo‘l $21,3 \pm 0,47$ kg/m.ga teng.

O‘rtacha ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanganda, o‘rtadagi farq o‘ng qo‘l 2,6 kg/m.ni, chap qo‘l 2,07 kg/m.ni tashkil qildi va u statistik jihatdan muqarrardir ($P < 0,05$).

5 sinf qiz bola o‘quvchilari qo‘l dinamometriyasining eng katta ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l 24,0 kg/m.ga, chap qo‘l 22,0 kg/m.ga, eng kichik ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l 14,0 kg/m.ga, chap qo‘l 15,0 kg/m.ga teng. O‘rtacha ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l $20,6 \pm 0,40$ kg/m.ga, chap qo‘l $19,1 \pm 0,41$ kg/m.ga teng.

6 sinf qiz bola o‘quvchilari qo‘l dinamometriyasining eng katta ko‘rsatkichi esa o‘ng qo‘l 29,0 kg/m.ga, chap qo‘l 26,0 kg/m.ga, eng kichik ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l 18,0 kg/m.ga, chap qo‘l 17,0 kg/m.ga teng. O‘rtacha ko‘rsatkichi o‘ng qo‘l $22,8 \pm 0,60$ kg/m.ga, chap qo‘l $21,3 \pm 0,47$ kg/m.ga teng.

O‘rtacha ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanganda, o‘rtadagi farq o‘ng qo‘l 3,0 kg/m.ni, chap qo‘l 3,6 kg/m.ni tashkil qildi va u statistik jihatdan muqarrardir ($P < 0,01$).

Olingan natijalar taxlilidan shuni xulosa qilish mumkinki:

5-sinf o‘g‘il bolalarda o‘ng qo‘l ko‘rsatkichlari qizlarnikiga qaraganda yuqori bo‘lib, farq statistik jihatdan muqarrar. CHap qo‘l ko‘rsatkichlari o‘rtasida ham o‘g‘il bolalarda yuqori bo‘ladi. Ular o‘rtasida statistik farqni ko‘rishimiz mumkin.

6-sinfda o‘qiyotgan o‘g‘il bolalarda o‘ng va chap qo‘l ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanganda, o‘ng qo‘l ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, bu qiz bollarnikiga qaraganda yuqori ekan. Qiz bolalarda ham o‘ng qo‘l ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar farqi o‘zaro taqqoslanganda, ular o‘rtasidagi farq statistik jihatdan muqarrar ekanligini ko‘rish mumkin.

Qo‘l barmoqlarni bukuvchi muskullarni maksimal qisqarish kuchi yoshga bog‘liq holda ortib bormoqda va ular o‘rtasidagi farq sezilarli darajada. Bu holat muskul tizimini o‘sish va rivojlanish jarayonini qonuniyat asosida ketayotganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бассам Х.О. Абдель Разек. Оценка физического состояния учащихся младших классов (7–12 лет) мужских школ Палестины // Автореферат дисс. ... к.физ.–вос.спорт.н. – Киев, 2000. – С.3–19.

2. Буракова Е.Н. Динамика изменений антропометрических показателей у детей Самарского региона в постнатальном периоде онтогенеза // Дисс. ... к.мед.н. (14.03.01–анатомия человека). – Самара, 2016. – С.3–19.

3. Гаврильева К.С. Морфо-функциональная характеристика состояния здоровья юных спортсменов и эффективность влияния пантовой массы

- северного оленя на восстановительные процессы организма // Автореферат дисс. ... к.мед.н. (14.01.08–педиатрия). – Якутск, 2017. – С.4–21.
4. Денисова Л.В., Хмельницкая И.В., Харченко Л.А. Измерения и методы математической статистики в физическом воспитании и спорте: Учебное пособие для вузов. // Киев. – Изд-во «Олимп. л-ра», 2008. – С.7–127.
5. Ефимова Н.В., Мыльникова И.В., Иванов А.Г. Оценка физической подготовленности учащихся Иркутской области (по данным мониторинга) // Фундаментальные исследования. – 2015. – №7 (Часть 4). – С.675–678.
6. Комиссарова Е.Н., Абдыганыев Н., Саттаров А.Э., Джолдошева Г.Т. Особенности роста массы и длины тела у школьников в условиях высокогорья юга Кыргызстана // Вестник Ошского государственного университета. – 2012. – №3. (Вып. II). – С.90–92.
7. Муратова И.В. Оценка физического развития и физической подготовленности учащихся младших классов общеобразовательных школ Республики Мордовия // Вестник спортивной науки. – 2009. – №1. – С.59–61.
8. Реброва О.Ю. Статистический анализ медицинских данных. Применение пакета прикладных программ STATISTIKA // Москва. – Изд-во Медиа Сфера, 2002. – С.5–312.
9. Сафронов А.А., Арисланов И.Т. Динамика физического развития и физической подготовленности учащихся 5–6 классов // Молодой ученый. – 2013. – №7. – С.455–458. __